

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 4 (10)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Акрамова Фазилят Артикбаевна ПРОМЫШЛЕННЫЕ КАДРЫ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД: СТАНОВЛЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ	7
2. Karimjonov Jasurbek Muxtorjonovich O‘ZBEKISTONDA TARIXIY SHAXSLAR NOMIDAGI MUKOFOTLAR TA‘SIS ETILISHI: TAQDIRLASH JARAYONLARI	16
3. Кобзева Ольга Петровна АКАДЕМИК Э. В. РТВЕЛАДЗЕ - ЖИЗНЬ, ОТДАННАЯ НАУКЕ	25
4. Ктайбеков Саламат Маманович ВОЗРОЖДЕНИЕ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ И НОВЫЙ ЭТАП ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА И ЯПОНИИ	34
5. Mamatqulov Bekzod Sherozovich O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAJRIBA VA NATIJALAR (1925-1991 YILLAR)	45
6. Маматова Махфуза Бахриддиновна ТОРГОВЛЯ ИНДИЙСКИХ ЧАЕВ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - НАЧАЛА XX ВЕКА)	54
7. Mirzayev Komiljon Mamirjonovich O‘RTA OSIYO ARXELOGIYASI KAFEDRASINING PAYDO BO‘LISHI ZARURIYATLARI	61
8. Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	69
9. Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммед Эшбекович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХЧИЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ	83
10. Muxamedov Yoqubjon Qodirovich G‘ARBIY TURK XOQONLIGI VA ERON SOSONIYLARI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR	91
11. Нарбеков Абдикамил Вафаевич НАСЕЛЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД НАЦИОНАЛЬНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗМЕЖЕВАНИЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ	102
12. Назаров Хумоюн Алишерович., Одилова Нилюфар Зоиржон кизи РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ В СЕВЕРНОЙ БАКТРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ КУШАН	116

13. Normurodov Dilmurod Rashidovich IX–XII-ASRLARDAGI TOSHKENT VOHASI (SHOSH-ILOQ)NING SHISHASOZLIGI	132
14. Olimjonov Xabibjon Abduxalim o‘g‘li TURKISTON ASSRDA KUTUBXONA ISHINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI CHORA-TADBIRLAR	147
15. Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich O‘RTA OSIYO TEMIR YO‘LINING BUXORO AMIRLIGIGA KIRIB KELISHI VA TEMIR YO‘L BEKATLARINING FAOLIYATI	155
16. Rahmonqulova Zumrad Boyhurozovna O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA USMONIYLAR DAVLATI O‘RTASIDAGI IQTISODIY ALOQALAR TARIXIDAN	168
17. Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич ВКЛАД ВЫПУСКНИКОВ КАФЕДРЫ АРХЕОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	178
18. Саипова Камола Давляталиевна УПРАВЛЕНИЕ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АСС В ПЕРВЫЕ ГОДЫ СТАНОВЛЕНИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ	184
19. Сиддиков Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР	189
20. Tog‘ayev Jasur Erkinovich QADIMGI DAVR ME‘MORCHILIGI TARIXIY REKONSTRUKSIYASIGA DOIR (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)	206
21. Тўхтабоева Дилафрўз Эргашевна ЖАҲОН ШАҲАРЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ КЎРИНИШИ	214
22. Ubaydullayev Ikromjon Farxod o‘g‘li O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI ANTIK DAVLATLARNING TARIXIY UZVIYLIGI VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	219
23. Usarov Umidjon Abdimavlyanovich XIX ASRNING 60–70-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI YER EGALIGI VA MULKCHILIK MUNOSABATLARIGA OID SIYOSATI (Rasmiy amaldorlari va ishchi kommissiya vakillarining faoliyati misolida)	232
24. Холикулова Шахноза Баймахаматовна ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЛК КИМЁ КОРХОНАСИ ТАРИХИ	242
25. Холикулов Ахмад Баймахаматович ВОҲАСИ БЕКЛИКЛАРИНИНГ БУХОРО АМИРЛИГИ СИЁСИЙ ТАРИХИДА ТУТГАН ЎРНИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСРНИНГ БОШЛАРИ)	252

26. Худойкуов Урал Каримович ЖАҲОН ОЗИҚ- ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИНГ УСТУВОРЛИГИ ВА РИМ ДЕКЛАРАЦИЯСИ	260
27. Юнусова Хуршида Эркиновна ЎЗБЕКИСТОН ССР ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИ ҲОЛАТИ ВА МУАММОЛАРИ (XX АСР 70-80 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА)	268

Ubaydullayev I. F.

«Arxeologiya va etnologiya» kafedrası 1-bosqich magistranti

O'zbekiston Milliy Universiteti

Ubaydullayev_Ikromjon@gmail.com

O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI ANTIK DAVLATLARNING TARIXIY UZVIYILIGI VA RIVOJLANISH JARAYONLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada miloddan avvalgi III asrdan milodiy IV asrgacha bo'lgan davrda O'zbekiston hududida vujudga kelgan qadimgi davlatlar – Yunon-Baqtriya, Qang', Davan, Toxariston va Kushon podsholigi tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan kompleks o'rganiladi. Har bir davlatning siyosiy tuzilmasi, harbiy tizimi, xalqaro aloqalari, iqtisodiy faoliyati, tangachilik amaliyoti, diniy va madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, bu davlatlarning o'zaro aloqalari va ularning keyingi tarixiy davrlarga ta'siri ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyoda davlatchilik rivojlanishining ilk bosqichlarini tushunishda muhim ilmiy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: Yunon-Baqtriya, Qang', Davan, Toxariston, Kushon podsholigi, qadimgi davlatlar, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, madaniyat, tangachilik, zoroastrizm, buddizm, savdo yo'llari.

KIRISH

Markaziy Osiyo hududi qadimdan boshlab jahon sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri bo'lib, bu yerda miloddan avvalgi III asrdan boshlab bir qator yirik va nufuzli davlat tuzilmalari vujudga kelgan. Xususan, O'zbekistonning hozirgi hududida joylashgan qadimgi Yunon-Baqtriya podsholigi, Qang', Davan, Toxariston va so'ngra ularning negizida shakllangan Kushon imperiyasi o'z davrining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. Ushbu davlatlar Markaziy Osiyoda ilk davlatchilik an'alarini shakllantirgan bo'lib, ularning faoliyati nafaqat mintaqaviy, balki transkontinental miqyosda – Hindiston, Xitoy, Eron, Rim imperiyasi kabi yirik sivilizatsiyalar bilan bevosita aloqador bo'lgan.

Mazkur maqolada qadimgi O'zbekiston hududida shakllangan davlatlar tarixiy taraqqiyotining umumiy va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda har bir davlatning siyosiy tuzilmasi, boshqaruv shakllari, iqtisodiy faoliyati, harbiy qudrati, diniy e'tiqodlari, shuningdek, madaniy va san'at sohalaridagi yutuqlari o'rganiladi. Ayniqsa, tangachilik, xalqaro savdo yo'llarining shakllanishi,

madaniyatlararo almashinuvlar, diniy sintezlar kabi jarayonlar tarixiy nuqtai nazardan mukammal yoritiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda O'zbekiston hududida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar merosi, ularning davlat boshqaruvi, iqtisodiy siyosati va madaniy-ma'naviy qadriyatlarini chuqur o'rganish, nafaqat tarixiy ilmfan, balki hozirgi davlat siyosati va madaniyat strategiyasi uchun ham muhim nazariy asos yaratadi. Shu jihatdan, maqolada tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida ushbu davr davlatlarining taraqqiyot bosqichlari ilmiy tahlil qilinadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Miloddan avvalgi III asrda, taxminan 250-yilda, Salavkiylar imperiyasi tarkibidagi Baqtriya satrapligining yunon noibi Diodot mustaqillik e'lon qilib, Yunon-Baqtriya davlatiga asos soldi. Dastlabki bosqichda Diodot Salavkiylarga nisbatan sodiqlik shiorini saqlagan, bu esa uning tangalarida Antiox nomi bilan birga o'z suratini berkitib ko'rsatish orqali ifodalangan. Ammo uning vorisi Diodot II allaqachon ochiqdan-ochiq mustaqillik e'lon qilgan va shunday qilib, Yunon-makedoniyaliklar hukmronligi ostida Baqtriya, So'g'd, Marg'iyona va ehtimoliy tarzda Parkana hamda Choch hududlarini qamrab olgan Yunon-Baqtriya podsholigi shakllandi.

Davlatning siyosiy markazi qadimgi Baqtriya bo'lib, poytaxti Baktariya shahri (zamonaviy Mozori Sharif yaqinida) bo'lgan. Bu yerda strategik harbiy bazalar, markaziy hokimiyat va iqtisodiy faoliyat markazlari to'plangan edi. Podsho oliy hokimiyat egasi sifatida siyosiy, harbiy va ma'naviy boshqaruvni o'z qo'liga jamlagan bo'lib, ayrim holatlarda vorislik asosida ikkinchi podsho yoki hamtavsif sifatida podsho o'g'li ham hokimiyatda ishtirok etgan [1].

Yunon-Baqtriya davlati o'zining eng yuqori taraqqiyot bosqichiga miloddan avvalgi II asrning birinchi yarmida erishdi. Ayniqsa, Demetriy va Eukratid hukmronlik yillarida hududiy ekspansiya Hindistongacha yetib borgan. Demetriy tomonidan Eronning g'arbiy tumanlari, Afg'oniston, Sind va shimoliy Hindiston zabt etilgan. Eukratid esa 1000 dan ortiq shaharni egallaganligi haqidagi ma'lumotlar antik mualliflar tomonidan keltirilgan. Biroq bu yutuqlarga qaramay, ichki siyosiy beqarorlik, mahalliy aristokratiyaning kuchayishi, tashqi bosim (xususan, yuyechji va saklar tomonidan) natijasida davlat asta-sekin zaiflashdi va miloddan avvalgi II asr oxiriga kelib butunlay parchalanib ketdi [2].

Yunon-Baqtriyada tanga zarb qilish yuqori darajada rivojlangan bo'lib, oltin, kumush va bronza tangalar zarb qilingan. Tangalar faqat ichki muomalada emas, balki Hindiston, Eron va hatto Sharqiy Yevropa hududlarida ham muomalada bo'lgan. Bu xalqaro savdo aloqalari va iqtisodiy almashinuvning rivojlanganligini

ko'rsatadi. Baqtriya savdogarlari Xitoy, Hindiston, Parfiya, Rim kabi hududlar bilan faol savdo olib borganlar.

Madaniyat sohasida esa, Yunon-Baqtriya davlati elin va mahalliy an'analarning sinteziga asoslangan o'ziga xos "sharqiy ellinizm" madaniy oqimini yaratdi. Tillar xilma-xilligi (yunon, qadimgi fors, aramiy, sog'diycha), dinlar aralashuvi (Zardushtiylik, yunon politeizmi, mahalliy kultlar, Buddaviylik) madaniy ko'pqirrali muhitni shakllantirgan. Ayniqsa, Oyxonim va Tahti Sangin kabi arxeologik yodgorliklarda bunday madaniy aralashuv yaqqol ko'zga tashlanadi [3].

Shu tariqa, Yunon-Baqtriya davlati O'rta Osiyoda ilk antik davlatlilik tajribasi sifatida maydonga chiqib, keyinchalik Toxariston va Kushan imperiyalari uchun zamin tayyorladi.

Markaziy Osiyoning qadimgi siyosiy xaritasida alohida o'rin egallagan Qang'davlati (Kangyuy) miloddan avvalgi III asrda vujudga kelgan bo'lib, dastlabki shakllanishida saklarning ko'chmanchi qabilalari muhim rol o'ynagan. Avesto manbalarida "baland va muqaddas Qang'" sifatida tilga olingan bu davlatning markaziy hududlari Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan bo'lib, zamonaviy Toshkent vohasi, Chimkent va O'rta Osiyo dashtlari bilan qamrab olingan edi [4].

Qang' nomining o'zi ehtimoliy ravishda siyosiy-tribal birlikni ifodalovchi tushuncha bo'lib, bu davlat turli ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi etnik guruhlar konfederatsiyasi shaklida tashkil topgan edi. Xitoy manbalarida Qang' (Kangyuy) haqida ilk eslatmalar miloddan avvalgi II asrga tegishli bo'lib, bu ma'lumotlar Zhang Qianning Katta Yuezhi qabilalariga qilgan safarlari doirasida qayd etilgan.

Xitoy yozma manbalariga ko'ra, Qang' besh asosiy mulkni o'z ichiga olgan konfederativ tuzilma bo'lib, ular Suse, Fumu, Yuni, Gi va Yuegyan kabi nomlar bilan yuritilgan. Ushbu mulklar, asosan, sug'oriladigan dehqonchilik rivojlangan hududlar edi va har birining o'z markaziy shahri mavjud bo'lgan. Jumladan, Yuni hozirgi Toshkent vohasiga, Yuegyan esa Xorazmga to'g'ri kelgan. Fumu esa Miankol (Zarafshon) vodiysidagi Kushaniya bilan bog'lanadi [2].

Qang' davlati dastlab Xitoy imperiyasi va Xunnu imperiyasi o'rtasida muvozanatni saqlovchi kuch sifatida maydonga chiqqan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan o'zining siyosiy mustaqilligini mustahkamlab bordi. Miloddan avvalgi I asrda davlat o'zining harbiy salohiyati va tashqi siyosiy ta'sirini kengaytirib, Davan, Yansay va hatto Parfiya singari qo'shni hududlar bilan diplomatik va harbiy aloqalar o'rnatdi. Tarixiy manbalarda bu davrda Qang' armiyasining soni 120 mingga yetgani ta'kidlanadi [4].

Qang' harbiy tuzilmasida og'ir zirhli otliq qo'shinlarning paydo bo'lishi alohida e'tiborga loyiqdir. Bu otliqlar bronzali zirh kiygan va temir bilan himoyalangan otlarda jang qilgan. Ularning qurollari kamon, nayza va uzun

qilichdan iborat bo'lgan. Bu yangi taktika, keyinchalik Yevroosiyo kengliklaridagi ko'chmanchi xalqlarning harbiy san'atida keng tarqalgan.

Qang' davlati boshqaruvi sulolaviy monarxiya bilan kechgan bo'lib, davlat rahbari "Kangyuy xonadonining hukmdori" deb atalgan. Uning hokimiyati oqsoqollar kengashi tomonidan nazorat qilingan va ko'p hollarda hukmdorlik lavozimi avloddan-avlodga o'tgan. Bu tizim, ko'p jihatdan, keyingi turkiy davlatlarning "yabgu" an'analarga monand bo'lib, qadimgi Qang' siyosiy modelining davomchisi sifatida qaraladi [4].

Qang' iqtisodiyotining asosini sug'oriladigan dehqonchilik tashkil etgan. Toshkent vohasida joylashgan voha shaharlari - eski va yangi shaharlar - hunarmandchilik, savdo-sotiq, metallurgiya, ganchsozlik, to'qimachilik, teri ishlash va boshqa kasb-hunar markazlariga aylangan. Yer osti boyliklariga boy bu hududda mis, temir, oltin va boshqa foydali qazilmalar qazib olingan. Bu esa vohani o'z davrining sanoat markaziga aylantirgan.

Savdo aloqalari borasida Qang' eng muhim tranzit hudud bo'lib xizmat qilgan. Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i aynan Qang' hududidan o'tgan. Farg'ona vodiysini Tarim havzasi, Xorazm, Qozog'iston dashtlari va hatto Uralbo'yi hududlari bilan bog'lovchi yo'llar orqali xalqaro savdo aloqalari yuritilgan. Xitoy diplomatik hisobotlarida Qang' elchilari va savdogarlarining faoliyati, davlatning mustaqil tashqi siyosati ko'p bora tilga olinadi.

Qang' davrida pul muomalasi ham shakllana boshlagan bo'lib, yunon-baqtriy tangalariga taqlidan zarb qilingan ilk mahalliy tangalar muomalaga kiritilgan. Bu holat, davlatning iqtisodiy suverenitetga intilishi va xalqaro savdoda faol qatnashayotganini ko'rsatadi.

Aholisi asosan ko'chmanchi va yarim-ko'chmanchi turkiy va eroniy tillarda so'zlashuvchi qabilalardan iborat bo'lib, ularning urf-odatlar, kiyim-boshlari va turmush tarzi manbalarda massagetlar, alonlar bilan qiyoslanadi. Diniy e'tiqodlarda esa Mitra, Anahita, Siyavush kabi zardushtiy tangrilarga sig'inish asosiy o'rinni egallagan. Bu e'tiqodlar joylardagi mahalliy an'analarga bilan uyg'unlashgan holda yashab kelgan.

Milodning dastlabki asrlarida Qang' yana-da kuchayib, o'zining siyosiy ta'sir doirasini kengaytirgan. Hunnu, Usun va Yuezhi kabi ko'chmanchi guruhlarining bir qismi bu yerga ko'chib kelgan. Manbalarda hatto 80 ming kishilik Usun shahzodasi Bixuanji o'z elati bilan Qang' hududiga ko'chib kelgani haqida ma'lumot mavjud. Bu esa davlatning etnosiyosiy jihatdan ham keng qamrovli konfederatsiyaga aylanganidan dalolat beradi [8].

Shunday qilib, Qang' davlati antik davrda Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin egallagan davlatlardan biri bo'lib, u o'zining harbiy kuchi, savdo-sotiqdagi faol ishtiroki, siyosiy mustaqilligi va madaniy xilma-xilligi bilan keyingi davr

sivilizatsiyalariga, xususan, Kushonlar, Xorazm va Qangʻ davlati kabi tuzilmalar shakllanishiga asos boʻlgan.

Davan davlati (yoki baʼzan Parkanaa nomi bilan atalgan) Markaziy Osiyoning tarixiy taraqqiyotida muhim oʻrin egallagan qadimgi davlatlardan biri boʻlib, u miloddan avvalgi III asrdan boshlab milodiy II asrgacha mavjud boʻlgan. Davan davlati qadimgi Fargʻona vodiysida joylashgan boʻlib, uning chegaralari shimolda Toshkent vohasiga, janubda esa Yuezhi hududlariga tutashgan.

Dastlabki davlatchilik unsurlarining shakllanishi Fargʻona vodiysida miloddan avvalgi V-IV asrlarda kuzatiladi. Bunga Shurabashat madaniyatiga oid arxeologik topilmalar asos boʻla oladi. Xususan, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, shaharsozlik va savdo-munosabatlarning kengayishi Davan hududida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim bosqichiga kirilganini koʻrsatadi [5].

Xitoy tarixiy manbalariga koʻra, Davan davlati obod, aholisi zich boʻlgan, oʻziga xos madaniyati va anʼanalariga ega boʻlgan yirik davlat sifatida tasvirlanadi. Miloddan avvalgi II asr oxirida bu yerda 70 dan ortiq yirik va kichik shaharlar boʻlgani qayd etiladi. Xitoylik elchi va sayohatchi Chjan Szyan Fargʻonaga tashrifi davomida aholining dehqonchilik, bogʻdorchilik, chorvachilik, ayniqsa ot yetishtirishda katta muvaffaqiyatlarga erishganini yozib qoldirgan [14].

Davlat boshida “Van” (podsho yoki hokim) turar edi, u oʻz faoliyatida oqsoqollar kengashiga tayanar edi. Kengash doimiy faoliyat yuritgan boʻlib, unda davlat ahamiyatiga molik masalalar, urush va tinchlik siyosati muhokama qilinar edi. Baʼzida kengash qarori bilan hukmdor lavozimidan ham chetlashtirilgan. Shuningdek, shaharlarga alohida boshqaruvchilar tayinlangan boʻlib, ular koʻpincha oqsoqollar kengashining aʼzolari boʻlgan.

Davan davlatining harbiy qudrati ham eʼtiborga loyiq boʻlgan. Harbiy kuchlar 60 minglik qoʻshindan iborat boʻlib, otliq va piyoda askarlardan tuzilgan edi. Manbalarda ularning ot ustida oʻq otish sanʼatida yetuk ekani taʼkidlanadi. Xususan, Davan poytaxti — Ershi shahri, Xitoy bosqinlariga qarshi koʻrsatgan qahramonlarcha qarshilik bilan tarixda muhrlangan. Arxeologik maʼlumotlarga koʻra, shahar mudofaasi paytida minoralarda don maydalagichlar va don qoldiqlari topilgan, bu esa harbiylar oʻzini oziq-ovqat bilan taʼminlaganini koʻrsatadi.

Miloddan avvalgi II asr oxirida Xitoy imperatorlari Fargʻona boyliklariga, xususan “osmoniy otlar” deb atalgan otlarga ega boʻlish maqsadida ikki marta yurish qilgan. 104-101-yillarda boʻlib oʻtgan yurishlarda birinchi bosqin muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Ikkinchi yurish davrida esa Xitoy qoʻshinlari Ershi shahrini 40 kunlik qamal qilgan, biroq shahar zabt etilmagan. Faqat katta miqdorda tovon va otlar evaziga tinchlik sulhi imzolangan [6].

Davan aholisi koʻp sonli boʻlib, arxeologik manbalarda 300 mingga yaqin kishi yashagani aytiladi. Aholi orasida dehqonchilik, bogʻdorchilik, chorvachilik,

hunarmandchilik (zargarlik, kulolchilik, metallsozlik), savdo va transport xizmatlari rivojlangan edi. Ayniqsa, “samoviy otlar” deb atalgan Farg‘ona otlari Xitoyda katta obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan va ularga bag‘ishlab madhiya bitilgan.

Davan hududi Buyuk Ipak yo‘lining muhim strategik nuqtalaridan biri bo‘lib, savdo yo‘llari aynan shu davlat orqali o‘tgan. Bu holat davlatga katta iqtisodiy foyda keltirgan. Qulay yo‘l tarmoqlari va xavfsizlik savdo-sotiqning rivojlanishiga xizmat qilgan. Aynan shuning uchun Xitoy elchilari Farg‘onaning yo‘llari tozaligi, savdogarlar faoliyati va bozorlardagi faol savdo muhitiga alohida baho berganlar [14].

Farg‘ona ayollari jamiyatda nufuzli o‘rin egallagan bo‘lib, xitoylik manbalarda “ayol aytganini erkak bajarmaslikka jur‘at etmasdi” degan jumlar uchraydi. Bu esa Davan jamiyatida gender tengligi elementlari mavjud bo‘lganini bildiradi.

Davan diniy qarashlari xilma-xil bo‘lib, bu yerda quyosh va tug‘ish samaradorligi bilan bog‘liq ayol ibodatlari, ot kultlari, ajdodlarga sig‘inish, yong‘in marosimlari kabi e‘tiqodlar keng tarqalgan edi. Marosimlarda yangi yil munosabati bilan rasmiy kurashlar, tantanali sovg‘alar, masalan, nikohda tilla uzuk hadya qilish kabi urf-odatlar kuzatilgan.

Shu tariqa, Davan davlati miloddan avvalgi III asrdan boshlab bir necha asr davomida iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan mustaqil, taraqqiy etgan davlat bo‘lib, u Farg‘ona vodiysining tarixiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. U o‘zining davlat boshqaruvi, madaniyati, iqtisodi va tashqi siyosati bilan Markaziy Osiyo tarixida salmoqli iz qoldirgan [5].

Toxariston davlati miloddan avvalgi II asr oxiri - milodiy I asrda shakllangan bo‘lib, sobiq Yunon-Baqtriya davlatining tanazzulidan so‘ng yuzaga kelgan muhim siyosiy birliklardan biri hisoblanadi. Xitoy manbalarining guvohlik berishicha, bu davlatni yaratgan asosiy kuchlar - janubiy Sirdaryo va Amudaryo oralig‘iga joylashgan ko‘chmanchi Yuezhi (Yuechji) qabilalari bo‘lgan. Bu qabilalar Yunon-Baqtriya hukmronligini barham toptirgach, Baqtriya hududida o‘rnashib, o‘z davlat tuzilmalarini vujudga keltirdilar [14].

Toxariston deb atalgan hudud zamonaviy Afg‘onistonning shimoliy qismi, Tojikiston janubi va O‘zbekistonning janubiy tumanlarini o‘z ichiga olgan. Xitoy tarixchilarining yozishicha, Yuezhi qabilalari dastlab Amudaryoning shimolidagi dashtlarda yashab, so‘ngra janubga siljib, Baqtriyaning egallashgan. Bu bosib olingan hudud dastlab “Daxya” (ya‘ni Baqtriya) nomi bilan atalgan bo‘lsa-da, keyinchalik Toxariston nomi bilan mashhur bo‘ldi. Toxar nomi esa antiqa muhitda bu yerda yashagan etnik qatlamlardan biri bo‘lgan tocharlar (yoki toxarlar) nomidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin.

Toxariston ilk bosqichda markazlashmagan, mustaqil shaharlardan iborat siyosiy tizimga ega bo‘lgan. Har bir yirik shahar o‘z hukmdoriga ega bo‘lgan

bo'lib, xitoy manbalarida bunday shaharliklar soni beshtaga yetganligi qayd etiladi. Bu ko'rinish Toxaristonda o'ziga xos federativ boshqaruv tizimi mavjud bo'lganligidan darak beradi. Shahar hukmdorlari "knyaz" maqomida bo'lib, ular orasidagi aloqalar turg'un bo'lmagan [11].

Aholining asosiy qismini sobiq Yunon-Baqtriya davlati tarkibida yashagan dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar va mahalliy zodagonlar tashkil etgan. Ular bilan aralashgan yuyezhi va boshqa ko'chmanchi qabilalar ayrim hollarda dehqonchilikka o'tgan bo'lsa-da, aksariyati ko'chmanchi turmush tarzini davom ettirgan. Bu holat Toxariston ijtimoiy tuzilmasida osedlo-dehqonchilik va ko'chmanchilik unsurlarining o'zaro qo'shilishi natijasida shakllangan gibrid tizimni yuzaga keltirgan.

Toxariston iqtisodiyoti ko'p tarmoqli bo'lib, sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo asosiy o'rinlarni egallagan. Sug'orma dehqonchilikda bug'doy, arpa, sholi, beda, uzum va boshqa mevali daraxtlar yetishtirilgan. Chorvachilik, ayniqsa ot yetishtirish alohida ahamiyat kasb etgan. Toxariston orqali o'tuvchi qadimgi savdo yo'llari, xususan, Sharqiy Osiyo va Eron, Hindiston va Xitoy o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirgan. Bu esa Toxaristonning iqtisodiy hayotida xalqaro savdoning o'rni yuqori bo'lganini ko'rsatadi.

Pul muomalasi ham Toxaristonda rivojlangan bo'lib, dastlab Yunon-Baqtriya tangalariga taqlid qilingan tangalar chiqarilgan. Yangi hukmdorlar eski tangalar dizaynini o'zlashtirgan bo'lib, ularni o'z ismlarini yozish bilan yangilaganlar. Bu holat mahalliy aholining ilgari mavjud bo'lgan monetar tizimga yaqinligidan, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni saqlash maqsadida amalga oshirilganini anglatadi [3].

Madaniy hayotda esa yunon, mahalliy baqtriy, hind va fors unsurlari sintezidan iborat gibrid madaniyat shakllandi. Arxeologik manbalar, xususan, tangalar, arxitektura yodgorliklari va haykaltaroshlik asarlarida bu madaniy sintezning yorqin namunalarini ko'rish mumkin. Toxariston san'ati o'z ifodasini terakotalar, monumental haykallar, diniy yodgorliklar, ayollarning liboslaridagi naqshlar orqali ifodalagan. Ayniqsa, Toxaristonda zardo'shtiylik (zardushtiylik) asosiy din bo'lgan bo'lsa-da, buddizm, hind e'tiqodlari va mahalliy animistik tasavvurlar bilan ham sintezlashgan [11].

Toxaristonda ijtimoiy tartib zaminida jamoa a'zolarining erkinligi nisbatan yuqori darajada saqlangan bo'lib, erkin dehqonlar va hunarmandlar jamiyat hayotining asosiy qatlamini tashkil etgan. Qulchilik keng ko'lamda bo'lmagan, ammo urush asirlarini qullikka aylantirish holatlari kuzatilgan.

Xitoy manbalariga ko'ra, Toxariston aholisi savdoda mohir, urushda zaiфроq, lekin shaharlik madaniyatga ega bo'lgan xalq sifatida tavsiflanadi. Ularning

shaharlari, bozorlari va me'moriy yodgorliklari savdo va madaniyat markazlariga aylangan [10].

Toxaristonning siyosiy hayoti o'ziga xos noaniqliklar bilan ajralib turadi. Dastlab yuyezhi hukmdorlari umumiy rahbarlikni amalga oshirgan bo'lsalar-da, vaqt o'tishi bilan bu hududda mustaqil knyazliklar vujudga kelgan. Tarixiy jarayon davomida bu hudud bir qancha yirik davlatlar - Kushonlar, Eftaliylar, Sosoniylar va boshqalarning siyosiy ta'siri ostida bo'lgan.

Shunday qilib, Toxariston davlati o'zining madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari bilan O'rta Osiyo tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan. Bu davlat orqali antik davrda O'rta Osiyo aholisi turli sivilizatsiyalar bilan yaqin aloqada bo'lgan va o'z madaniyatini global savdo va siyosiy jarayonlarga moslashtirishga erishgan. Kushonlar davlati

Kushonlar davlati o'z nomini yunon manbalarida "toharlar", xitoy manbalarida esa "yuechjilar" deb atalgan ko'chmanchi qabilalardan birining - Guishuang (Kushan) urug'idan olgan. Miloddan avvalgi II-I asrlarda Yunon-Baqtriya davlatini mag'lubiyatga uchratgan yuyechjilar Amudaryoning shimoliy sohiliga joylashib, Baqtriya hududida o'z siyosiy ustunligini o'rnatgan edilar. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, dastlab yuyechjilar beshta yirik urug'-qabila birlashmasidan iborat bo'lib, ulardan Guishuang urug'i yetakchilik maqomini egallab, boshqa to'rt urug'ni bo'ysundirgan va mustaqil davlat - Kushonlar davlatiga asos solgan. Bu hodisa milodiy I asrning boshlariga to'g'ri keladi [8].

Kushonlar davlati o'zining siyosiy kuch-qudratiga Kanishka I hukmronligi davrida (taxminan 78–123 yillar) erishdi. Kanishka davrida davlatning hududiy chegaralari nihoyatda kengaydi: Baqtriya, So'g'd, Janubiy Tojikiston, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va hatto Sharqiy Turkiston hududlari Kushonlar davlatining tarkibiga kirdi. Poytaxt avval Baqtriyada, keyinchalik esa hozirgi Pokiston hududidagi Purushapura (Peshovar) shahriga ko'chirilgan.

Kushonlar davlati markazlashgan imperiya bo'lib, uning boshqaruv tizimi qat'iy hierarxiyaga asoslangan edi. Davlat satrapliklarga – viloyatlarga bo'linib, ular satraplar tomonidan boshqarilgan. Ba'zi chegaraviy hududlarda maxsus harbiy-hokimiy lavozim – kanaranglar faoliyat yuritgan. Bu lavozim egasi harbiy siyosatni yuritish bilan birga, soliq yig'imi, adliya va diplomatik vakillik kabi vazifalarni ham bajargan. Aytish mumkinki, bugungi Surxondaryo viloyati hududi ham o'sha davrda bunday maxsus harbiy-ma'muriy birlik tarkibiga kirgan.

Kushonlar davrida markazlashgan boshqaruvga asoslangan teokratik monarxiya shakllandi. Kushon podsholari nafaqat dunyoviy hokimiyatga, balki diniy yetakchilikka ham egalik qilganlar. Ayniqsa, Kanishka I davrida buddaviylik dini davlat siyosatining muhim unsurlaridan biriga aylangan [3].

Kushonlar davlati iqtisodiy jihatdan oʻta taraqqiy etgan edi. Asosiy iqtisodiy faoliyat sugʻoriladigan dehqonchilik, ayniqsa don, paxta, tok, sabzavot va mevalar yetishtirish, shuningdek chorvachilik - ayniqsa echkichilik va qoʻychilik chorvachilikdan iborat edi. Qishloq xoʻjaligi sohasida katta yutuqlarga erishilgan, yangi yerlar oʻzlashtirilib, irrigatsion inshootlar - ariq va kanallar tarmogʻi kengaytirilishi hisobiga Mahalliy xalqlarning iqtisodiy salohiyati yuksalgan.

Bundan tashqari, Kushon davlati oʻzining rivojlangan hunarmandchiligi bilan ajralib turardi. Kulolchilik, toʻqimachilik, zargarlik, metallsozlik, yogʻoch oʻymakorligi keng rivojlangan. Shuningdek, temir, oltin, kumush, mis va boshqa foydali qazilmalar qazib olinib, mahalliy isteʼmol uchun va eksport ehtiyojlariga xizmat qilgan.

Kushonlar davri – oʻzbek davlatchilik tarixida birinchi marta oltin, kumush va bronzadan yasalgan tangalar tizimli ravishda muomalaga kiritilgan davrdir. Kushon tangalari oʻzining shakli, vazni va ikonografik tasvirlari bilan butun Sharq va Ellin dunyosida keng tarqalgan. Kushon tangalari nafaqat ichki bozorlarda, balki xalqaro savdo aloqalarida ham faol ishlatilgan. Jumladan, bunday tangalar Xitoy, Hindiston, Rim imperiyasi, Sharqiy Turkiston, Hazar dengizi boʻylarida ham uchraydi. Bu esa Kushon davlati xalqaro savdo aloqalarida faol ishtirok etganini koʻrsatadi [2].

Kushonlar davlati geografik joylashuvi jihatidan Buyuk Ipak yoʻlining asosiy tugun nuqtalaridan biri boʻlganligi sababli, xalqaro savdo-sotiqning muhim markaziga aylangan. Hindistondan ipak, choy, qimmatbaho toshlar olib kelingan boʻlsa, Rimdan oynalar, shishali idishlar, zargarlik buyumlari va bronza mahsulotlari olib kirilgan. Oʻz navbatida, Kushonlar davlati eksportida paxta, jun, charm, zargarlik buyumlari, metallardan yasalgan qurol-aslaha va xomashyo asosiy oʻrinni egallagan.

Kushonlar davrida madaniyat va sanʼatda ham jadal taraqqiyot yuz bergan. Ayniqsa, monumental sanʼat, haykaltaroshlik, freska va relʼef sanʼati rivoj topgan. Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayritom, Qoratepa kabi arxeologik yodgorliklar bu davr sanʼatining yuksak namunalarini oʻzida mujassam etadi. Kushonlar davridagi sanʼat hind, eron, yunon va mahalliy anʼanalar uygʻunligi asosida shakllanib, oʻziga xos “Sharqiy ellinizm” uslubini vujudga keltirgan.

Yozuv va yozma madaniyat ham bu davrda jadal rivojlandi. Ahamoniylar davridan meros boʻlgan aramiy yozuvi asosida kushano-baqtriy yozuvi vujudga kelgan. Shuningdek, yunon, brahmi, xorazmiy va sogʻdiy yozuvlari ham qoʻllanilgan. Budda diniy matnlarining bir qismi aynan Kanishka davrida yozib olingan. Din sohasida esa zardushtiylik, buddaviylik, hind diniy oqimlari, baʼzida esa ellinistik va mahalliy politeistik kultrlarning aralashuvi kuzatiladi. Ayniqsa, Kanishka I davrida Buddaviylik rasmiy din maqomini olib, keng tarqaldi.

Qolaversa, mazkur davrda Kushonlar Budda dini yoʻnalishlarini birlashtirgan “Mahayan” oqimini ilgari surganlar [6].

Kushonlar davlati III asrning ikkinchi yarmidan boshlab ichki ziddiyatlar, viloyatlarning markazdan ajralib chiqishga intilishi, iqtisodiy va harbiy muammolar natijasida zaiflashib bordi. Sosoniylar va Eftaliylar bosqinlari ostida IV asrning 70-80 yillarida davlat tamoman parchalanadi.

Shunday qilib, Kushonlar davlati Oʻzbekiston hududidagi qadimgi davlatchilik tarixining eng muhim bosqichlaridan birini tashkil etadi. Markazlashgan boshqaruv tizimi, kuchli iqtisodiyot, rivojlangan savdo-sotiq, madaniyat va dinlar uygʻunligi kabi jihatlar uni Markaziy Osiyoning ilk yirik imperiyalaridan biri sifatida ajratib koʻrsatadi.

XULOSA

Qadimgi davrda Oʻzbekiston hududida shakllangan siyosiy tuzilmalar – Yunon-Baqtriya, Qangʻ (Kangyuy), Davan va Toxariston davlatlari oʻzining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan Markaziy Osiyo tarixida muhim oʻrin egallagan. Tahliliy va tarixiy-arxeologik yondashuv asosida aniqlanishicha, ushbu davlatlar har biri oʻz zamonasida davlatchilik anʼanalarini shakllantirish, madaniy uygʻunlikni qaror toptirish va transhududiy integratsiyalarga xizmat qilgan.

Birinchidan, mazkur davlatlarning aksariyatida markazlashmagan boshqaruv shakllari, mahalliy zodagonlar va oqsoqollar kengashi orqali boshqaruv yuritilgan boʻlib, bu holat keyinchalik vujudga keladigan davlat tuzilmalarida ham aks etgan. Ayniqsa, Qangʻ va Davan davlatlaridagi kengashlar faoliyati, ijtimoiy muvozanat va qarorlar qabul qilishdagi jamoaviylik unsurlarini koʻrsatadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy asos sugʻoriladigan dehqonchilik, chorvachilik va savdoga tayangan boʻlib, har bir hudud oʻzining iqlimiy va tabiiy sharoitiga moslashgan holda ishlab chiqarish va bozor munosabatlarini rivojlantirgan. Qangʻ va Davan davlatlari orqali oʻqituvchi Sharq-Gʻarb savdo yoʻllari, xususan Buyuk Ipak yoʻli orqali yuritilgan tashqi savdo iqtisodiy aloqalarning yuqori darajada boʻlganini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, diniy qarashlar va madaniyatda sintez va gibridlik jarayoni kuzatiladi. Zardushtiylik, ellinistik, hind va mahalliy animistik eʼtiqodlar uygʻunlashgan holda yashab kelgan. Ayniqsa, Yunon-Baqtriya va Toxariston davlatlari hududidagi arxeologik yodgorliklarda madaniy tafovutlar emas, balki uygʻunlik aks etgan.

Toʻrtinchidan, davlatlar oʻrtasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy umumiyliklar mavjud boʻlib, bu ular oʻrtasida oʻzaro taʼsir va almashinuvning faol kechganidan

darak beradi. Til, urf-odat va kiyinishdagi o'xshashliklar, savdo-sotiqdagi o'zaro aloqalar va diniy madaniyatlar o'rtasidagi yaqinliklar bunga dalildir.

Beshinchidan, Kushonlar davlati yuqoridagi barcha davlatchilik tajribalarining sintezi sifatida shakllanib, markazlashgan boshqaruv tizimi, kompleks iqtisodiyot, yirik savdo aloqalari va diniy bag'rikenglik tamoyillariga tayangan holda, O'rta Osiyodagi ilk imperatorlik modeli bo'lib tarix sahnasiga chiqqan.

Xulosa qilib aytganda, miloddan avvalgi III asrdan milodiy IV asrgacha bo'lgan davrda O'zbekiston hududida vujudga kelgan davlatlar mahalliy va transhududiy davlatchilik jarayonining poydevorini qo'ygan. Ular orqali mintaqada davlat tizimlari, iqtisodiy aloqalar, madaniy integratsiya va diniy sintez jarayonlari qaror topgan bo'lib, keyinchalik shakllanadigan yirik davlatlar — Kushonlar, Xorazm, Qang' (keyingi bosqichlar), Eftaliylar va boshqalarning rivojlanishiga asos bo'lgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA DABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бартольд В.В. Греко-Бактрийское государство и его распространение на северо-восток. // Соч. Т.П. ч.2. – М., 1964.
2. Ртвеладзе Э.В. Историческое прошлое Узбекистана. – Т., 2009.
3. Ртвеладзе Э.В. Кушанское царство: династии, государство, народ, язык, письменность, религии. – Т., 2019.
4. Мухаммеджанов А.Р. Канг - древний Ташкент и ташкентцы. – Т., 2009.
5. Матбабаев Б. Древнеферганское государство Давань. // Очерки по истории государственности Узбекистана. – Т., 2001.
6. Дресвянская Г.Я., Джаббаров И.М. Духи, боги, святые Средней Азии. – Т., 1992.
7. Древние авторы о Средней Азии (VI до н.э. - III в. н.э.) // Хрестоматия под ред. Баженова А.В. – Т.: 1940.
8. История государственности Узбекистана / Под ред. Д.А. Алимовой, Э.В. Ртвеладзе. – Т., 2009. – Т.1.
9. Авеста в русских переводах (1861-1996)/ Сост., общ. ред., примеч., справ. раздел И.В. Рака. – СПб., 1997.
10. Кобзева О.П. История Узбекистана (с древнейших времен до IX в.). – Т.: «Университет», 2004.
11. Гиращенкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Тохаристан. – Т.: Фан, 1990. – 220 с.
12. Очерки по истории государственности Узбекистана. // Под ред. Д.А. Алимовой, Э.В. Ртвеладзе. – Т., 2001.
13. Центральная Азия в Кушанскую эпоху. – М., 1975.
14. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т.2. – М.-Л., 1950.

Убайдуллаев И. Ф.

магистрант 1-курса кафедры «Археологии и этнологии»

Национальный университет Узбекистана

Ubaydullayev_Ikromjon@gmail.com

ИСТОРИЧЕСКАЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ И ПРОЦЕССЫ РАЗВИТИЯ ДРЕВНИХ ГОСУДАРСТВ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В статье комплексно анализируется формирование государственности на территории современного Узбекистана в античный период — с III века до н.э. по IV век н.э. На примере государств Греко-Бактрии, Канг, Давани, Тохаристана и Кушанской империи исследуются политическая структура, военная система, международные связи, экономическая деятельность, чеканка монет, религиозная и культурная жизнь. Также рассматривается влияние этих государств на дальнейшее развитие цивилизации Средней Азии. Работа основывается на археологических, нумизматических и письменных источниках.

Ключевые слова: Греко-Бактрия, Канг, Давань, Тохаристан, Кушанское царство, античные государства, государственное управление, экономика, культура, чеканка монет, зороастризм, буддизм, торговые пути.

Ubaydullaev I. F.

The 1st year postgraduate student at the department of «Archeology and ethnology»

National University of Uzbekistan

Ubaydullayev_Ikromjon@gmail.com

HISTORICAL ORGANIZATION AND DEVELOPMENT PROCESSES OF ANCIENT STATES IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article presents a comprehensive study of ancient state formation in the territory of present-day Uzbekistan from the 3rd century BCE to the 4th century CE. It explores the political, military, economic, cultural, and religious aspects of the Greco-Bactrian Kingdom, Kanhga, Davan, Tokharistan, and the Kushan Empire. The research also examines coinage systems, international trade routes,

and the influence of these states on subsequent historical developments in Central Asia. The study is based on archaeological, numismatic, and historical sources.

Keywords: Greco-Bactria, Kanhga, Davan, Tokharistan, Kushan Empire, ancient states, state administration, economy, culture, coinage, Zoroastrianism, Buddhism, trade routes.